

**YAHYO G'ULOMOVNING XORAZM TARIXINI O'RGANISHDAGI
O'RNI**

Sheraliyev Dilshodbek

GulDU Akademik litseyi o'quvchisi,

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich

Guliston davlat pedagogika instituti, "Tarix" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD).

e-mail: kanimkulov812310@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada atoqli o'zbek olimi Yahyo G'ulomovning Xorazmni o'rganishdagi roli haqida so'z yuritiladi. Unda olim ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sug'orilish tarixi bo'yicha qadimgi Xorazmda olib borgan tadqiqotlari asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, maqolada Ya.G'ulomovning Xiva shahri tarixini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ham o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *Yahyo G'ulomov, T.Mirg'iyosov, sun'iy sug'orish tarixi, V.V.Bartold, Qubatau tog'i, "Uzkomstaris", M.Ye.Masson, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, M.Yu.Bayoniy, "Pravda Vostoka" gazetasi, "Xorazmning sug'orilish tarixi asari, Kaulbars.*

РОЛЬ ЯХЁ ГУЛЯМОВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ХОРЕЗМА

Шералиев Дильшодбек

ученик Академического лицея ГулГУ,

Канимкулов Олимжон Шералиевич

Гулистанский государственный педагогический институт.

e-mail: kanimkulov812310@gmail.com

Annotatsiya: *В статье рассматривается роль выдающегося узбекского учёного Яхё Гуломова в изучении Хорезма. Основное внимание уделяется истории ирригации в Древнем Хорезме – одному из основных направлений научной деятельности учёного. В статью также включены исследования Я. Гуломова по истории города Хивы.*

Ключевые слова: *Яхё Гуломов, Т.Миргиёсов, история искусственного орошения, В.В.Бартольд, Гора Кубатау, «Узкомстарис», М.Е.Массон, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, С.П.Толстов, М.Ю.Байоний, газета «Правда Востока», работа «История ирригации Хорезма», Каулбарс.*

THE ROLE OF YAKHYO GULYAMOV IN THE STUDY OF THE HISTORY OF KHOREZM

Sheraliyev Dilshodbek

student of the Academic Lyceum of GSU,

Kanimkulov Olimjon Sheralieovich,

Gulistan State Pedagogical Institute, Associate Professor,

Department of History, PhD

e-mail: kanimkulov812310@gmail.com

Abstract: *This article examines the role of the prominent Uzbek scholar Yakhyo Gulomov in the study of Khorezm. It focuses on the history of irrigation in ancient Khorezm, one of the scholar's main areas of research. The article also includes Yakhyo Gulomov's research on the history of the city of Khiva.*

Keywords: *Yakhyo Gulomov, T.Mirgiyosov, history of artificial irrigation, V.V.Bartold, Mount Kubatau, Uzkomstaris, M.E.Masson, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, S.P.Tolstov, M.Yu.Bayoniy, newspaper Pravda Vostoka, work "History of irrigation of Khorezm", Kaulbars.*

Kirish. Yahyo G‘ulomov nafaqat yirik tashkilotchi, shuningdek, yirik mutaxassis arxeolog-olim sifatida nafaqat O‘zbekiston shuningdek, butun Sharq taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan sug‘orish tizimini o‘rganish borasida o‘tgan asrning 30-40 yillarida olib borgan tadqiqotlari hanuz o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ya. G‘ulomovning “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asari sharq tamadduni paydo bo‘lishi va rivojida o‘ta muhim o‘rin tutgan sug‘orish tizimi borasida qimmatli ma‘lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Ya.G‘ulomovning ilmiy faoliyatida Xorazm mintaqasini tarixiy va arxeologik o‘rganish zalvorli o‘rin tutadi. Yahyo G‘ulomovning Xorazm mintaqasini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari olimning shogirdlari A.Muhammadjonov [1; 3, 4-b; 7, 79-92-bb], A.Asqarov [2; 4, 3-b; 5, 19-26-bb; 6, 34-35-bb] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tgan. Lekin akademik Ya.G‘ulomovning Xorazm mintaqasini o‘rganish borasida qilgan ishlari bo‘yicha akademik olimning uy arxivi ma‘lumotlari doirasida alohida tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotning metodologiyasi; Mazkur ilmiy maqolaning ilmiy – nazariy asosi tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda xolisonalik, haqqoniylik, tarixiylik va hujjatli ravishda asoslanganlik tamoyillariga tayanadi. Maqolamizda, akademik Ya. G‘ulomov shaxsi, uning Xorazm tarixini o‘rganishdagi o‘rni va ilmiy merosi haqidagi turli davriy nashrlar tahlil etiladi va sivilizatsion jarayonlarni tadqiq etishda olimning xizmatlari sifatida umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar: Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, eng qadimgi davrlardan O‘zbekistonda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, ilk-shaxarlarning vujudga kelishi va shaxarsozlik madaniyatining taraqqiyoti tarixi, o‘rta asrlarda O‘zbekistonning ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti muammolari, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalari tarixini o‘rganilishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, olimning Markaziy Osiyo xo‘jalik hayotining asosi bo‘lmish sug‘orish sohasidagi fundamental ilmiy izlanishlari natijalari tahsinga loyiq. Olim o‘z ilmiy izlanishlarida Xorazm, Zarafshon vohasi, Farg‘ona, Mirzacho‘l singari mintaqalarida sun‘iy sug‘orishning vujudga kelishi va uning rivojlanish tarixini o‘rganishga katta e‘tibor qaratdi. Zero, mamlakatlar va halqlarning taraqqiyoti ko‘pchilik hollarda sun‘iy sug‘orish tizimining qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi va rivojlanganligiga bog‘liq bo‘lgan.

Yahyo G‘ulomov “O‘zkomstrais”da ishlab yurgan vaqtlardayoq Xiva shahridagi tarixiy-me‘moriy inshootlarning saqlanish holati bo‘yicha datslabki tadqiqot ishlarini olib borgandi. Jumladan, 1933-yilning yozida Xiva shahrining muhim obidalaridan biri “Ko‘rinish xona”ning marmar toshlari Xiva tuman mahalliy xo‘jalik bo‘limi tomonidan ko‘prik uchun ko‘chirib olib ketilgani haqida aytib o‘tadi. Bu izlanishlarning samarasi o‘laroq 1941-yilda Yahyo G‘ulomovning “Xiva shahri va uning obidalari” nomli ilmiy asari bosilib chiqadi. Albatta bu ilmiy asarning vujudga kelishida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining materiallari asosiy o‘rinni egallaydi. Bu asar Xiva shahrining tarixiy obidalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shahardagi me‘morchilik san‘ati namunalari tadqiq etilgan. Qadimiy obidalarni tavsiflar ekan, Yahyo G‘ulomov 1917-yil inqilobigacha Xivada oltmishdan ortiq (60) madrasa bo‘lganligini yozadi. Bu ilmiy asarni yozishda va Xivadagi tarixiy obidalarni o‘rganishda Yahyo G‘ulomovga arab alifbosini bilishligi ham juda qo‘l keldi.

1943-yil Yahyo G‘ulomov ushbu ilmiy asari asosida «Xiva shaxri va uning obidalari» mavzusida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini himoya qildi. Shubhasiz ushbu asar olimning ilm-fan taraqqiyotida arxeologiya, toponimika, etnografiya, manbashunoslik va tarix fani sohalarining kuchli bilimdoni ekanligini bildiradi.

Qadimgi Xorazmda taraqqiyotining o‘ziga xosliklaridan biri bu yerda qadimdan sun‘iy sug‘orishga asoslangan madaniyatning rivoji hisoblanadi. Xorazm taraqqiyoti sun‘iy sug‘orishga asoslangan tarixiy-geografik mintaqaning eng shimoliy nuqtasi xisoblanadi. Va bu yerda sun‘iy sug‘orish o‘ziga xos texnik taraqqiyotga tayanib ish ko‘rgan. Shu sababli ham Ya.G‘ulomov o‘zining ilk mustaqil arxeologik izlanishlarini Xorazm mintaqasida boshladi. Bu haqida olim o‘z esdaliklarida “birinchi marotaba Xorazm vohasiga 1936-yilning may oyida keldim. Tashrifdan maqsad zaif va ximoyalanmagan Xiva asori atiqqa qo‘mitasi faoliyati bilan tanishish edi. Bir oycha Xivada bo‘ldim. Mang‘it yaqinidagi Qubatau tog‘idan ossuariylar qabristonini topgan edim. Toshkentga borganimdan so‘ng bu to‘g‘risida “Pravda Vostoka” gazetasining 17-avgust sonida maqolam chiqdi. Maqola chiqqach, O‘zbekiston tarixi muzeyi ilmiy

xodimi T.Mirg'iyosov tashabbusi bilan 1936-yil sentabr oyida Xorazmga ekspeditsiya tashkillashtirildi. O'zbekiston tarixi muzeyi hamda "Uzkomstaris" ikkisi birgalikda shartnoma tuzib, meni va T.Mirg'iyosovni Xorazmga ilmiy ekspeditsiyaga bosh qilib jo'natdilar" [9, 6-8-bb; 10, 2-14-bb; 16, 48-53-bb] – deb yozadi.

1937-yildan 1950-yilgacha Xorazm arxeologik–etnografik ekspeditsiyasi (II - jahon urush yillarida 1940-1945 yillarda ekspeditsiya o'z ishini vaqtincha to'xtatib turgan) tarkibida olib borilgan ko'p yillik arxeologik tekshirishlar, qadimiy qo'lyozmalar tahlili va etnografik ma'lumotlar asosida Xorazmning necha ming yillik ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini to'liq aks ettirgan bir qator ilmiy asarlar [11, 17] yuzaga keldi. Bular ichida hanuz o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan "Xorazmning sug'orilish tarixi (qadim zamonlardan hozirgacha)" [12] asari alohida o'rin tutadi.

Sharq mamlakatlari, shu jumladan Markaziy Osiyoning iqlim sharoiti va yer tuzilishi qadim zamonlardan boshlab kanallar qazish va suv inshootlari vujudga keltirish orqali sun'iy sug'orishni dexqonchilikning asosiy vositalaridan biriga aylantirganligi, shuning uchun ham Sharq mamlakatlarida sug'orish davlat ishi, jamoalar uyushmasi va umumxalq ishining bir qismi ekanligi Ya. G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida o'z isbotini topgan. Asar 1957-yil rus, 1959-yilda esa o'zbek tillarida nashr etilgan. Yahyo G'ulomovning bu asari o'zining hajmi, ilmiy xulosalarning teranligi bilan ajralib turadi. XX-asrning I-yarmida arxeologik izlanishlar bir qadar zamonaviy darajada yo'lga qo'yilgan paytda sug'orish tarixining manba asoslari moddiy yodgorliklar hisobiga favqulodda mo'l-ko'l malumotlar bera boshladi. Shunday sharoitda sug'orma dexqonchilik, suv inshootlari tarixi masalalarini izchil o'rganish vazifasi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi Yahyo G'ulomovning zimmasiga yuklatildi. Yahyo G'ulomovning ushbu asarida Xorazmning 3,5 ming yildan ortiqroq davrini o'z ichiga olgan sug'orilish tarixi davrma – davr talqin etilgan. Asardan ko'rishimiz mumkinki olim ikki xil manbadan juda moxirlik bilan foydalangan. Bular–yozma va arxeologik manbalardir. Asar muqaddima, 9 bob, hulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib asarning I-IV boblarida qadimgi zamonlardan to milodiy VI asrgacha bo'lgan uzoq tarixiy davr mobaynidagi Xorazm tarixi, iqlimi, geografiyasi va dehqonchilikdagi sun'iy sug'orilishning kelib chiqishi aks etgan(18-113 betlar). V-VII boblarida esa Markaziy Osiyoda sun'iy sug'orilishning ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari, VII–bobda Amudaryo, Kaspiy va Orol dengizlari sohillarida o'zbek, turkman va qoraqalpoq qabilalarining tarqalishi bayon qilinadi. Shuningdek, Xiva xonlari tamonidan o'zbek, ayniqsa, turkman va qoraqalpoq qabilalari ustidan yuritgan hukmronlik siyosati bayon qilinadi(102–248-betlar). Asarning VIII-bobida sug'orilish texnikasining tarixiy rivojlanishi, uning xilma-xilligi yoritiladi. Shuningdek bu bobda xalqimizning donishmandligi, ko'p mingyillik tajribasi hamda suvdan unumli foydalanish uchun asrlar bo'yi olib borgan qahramonliklari ham aks etgan (237-267 betlar). Nihoyat,

kitabning oxirgi IX-bobi 1917-yildan keyingi sug'orilish tarixiga bag'ishlangan (280-291-betlar) [12]. Yahyo G'ulomov o'z asarida xalq ichida ishlatiladigan juda ko'p xo'jalik -iqtisodiy atamalaridan foydalanadi va ularning ma'nosini tushuntiradi. Aynan xonlikning bosh mirobi bo'lib ishlagan Munis, Ogahiy asarlarini, Xorazm tarixi bilimdoni Bayoniy asarlarini chuqur o'rganadi. Shuningdek, XIX asr oxirlarida Xorazmda bo'lib bebaho manbalar to'plagan A.V.Kaulbars, A.L.Kun singari olimlar asarlariga etibor qaratdi. Bunday asarlar orasida Ya.G'ulomovning e'tiborini tortgani, XX-asr 20-yillarida bevosita vohada bo'lib, ko'rgan-kechirganlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini monografiyalarga muhrlagan F.P.Morgunenkov va V.V.Sinzerlinglarning faoliyatlari bo'ldi. Olim V.V.Bartoldning "Turkistonning sug'orilish tarixi" asarini ham chuqur o'rganadi, shu bilan birga uning ayrim fikr-mulohazalariga e'tiroz bildiradi [13, 35-38-bb]. Ya.G'ulomov V.V.Bartold Xorazmda bo'lmagan va Xorazmni tarixiy topografiyasini yaxshi bilmagan hamda yuqoridagi asarini asosan yozma manbalar asosida yozgan deb hisoblagan [12, 175-b]. Bundan tashqari arab, fors tilidagi qo'lyozma asarlar va ularning ingliz, nemis, rus tilidagi nashrlari hamda rus mualliflarining kitoblaridan 400 dan ortig'ini o'qib o'rganib, o'z asarida shu manbalardan iqtiboslar keltirib o'tdi. Ulardagi voqeliklar jarayonini bir-biriga taqqoslab chiqdi, shulardan kelib chiqib mavzuga yondoshgan holda sohaga doir betakror asar yaratdi.

"Xorazmning sug'orilish tarixi" asariga ilmiy jamoatchilik tomonidan berilgan yuksak baho avvalo, tarix va arxeologiya soxasida Yahyo G'ulomovning yirik olim sifatida e'tirof etilishini, qolaversa o'zbek arxeologiyasining ulkan yutug'ini ko'rsatar edi. Bu yutuq, shubhasiz uzoq yillar davomida olib borilgan fidokorona mehnatning va hayotda orttirgan ulkan tajribalarning samarasi edi. Yahyo G'ulomovning 1930-1940-yillarda qadimgi Xorazm yerlarida ilmiy tadqiqotlar paytida orttirgan tajribasi keyingi o'n yilliklar davomida Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Janubiy O'zbekiston viloyatlarida qadimgi moddiy madaniyatni, sug'orma dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganishda juda qo'l kelgan edi.

Xulosa va takliflar: Akademik Yahyo G'ulomovni Xorazm mintaqasida olib borgan izlanishlari nafaqat tarix va arxeologiya fanlari, balki, manbashunoslik, muzeyshunoslik, numizmatika, o'zbek tili va adabiyoti, folklorshunoslik, tabiiy fanlar sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning ulkan nazariy-ilmiy, tashkiliy-ilmiy, murabbiylik faoliyatini ijtimoiy-siyosiy noqulay sharoitlarda samarali darajada olib borishining o'zi noyob bir hodisa sifatida nazariy ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Yahyo G'ulomovning olimona xulosalari tarix fanida yirik nazariy masalalarning to'g'ri yechimini belgilab berganligi bilan ham ahamiyatlidir. Yahyo G'ulomovning Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi tadqiqotlari Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Beruniy, To'rtko'l tumanlarida Qirqqiz, Yonbosh qal'a, Tuproqqal'a, Teshikqal'a, Qal'aliqir, Ko'zaliqir kabi yodgorliklarni o'rganib, u yerlar qadimda sug'orilib ekin ekilganini, keyin cho'l bo'lib qolgan yerlarni ko'rsatib berdi. Hozir bu

yerlarda sug'orish ishlari tiklanib, bog'lar, paxtazorlar vujudga kelgan [13, 35-38-bb; 19].

Bugungi kunda olimning shogirdlari ham umrlarining keksalik faslida yashamoqdalar. Uni tanigan-bilgan zamondoshlarimiz taqdiri azal sabab birin-ketin hayotdan ko'z yumishmoqda. Shuningdek, biz maqolamizda ta'kidlab o'tgan "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarini va olimning asarlarini topib, ular asosida akademikning saylanma asarlarini nashr etish kerak deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR\REFERENCES

1. Muḥammadjonov A.P. Yaxḥ Fulomovni хотирлаб. Т.-2000 й.
2. Аскарлов А. Ўзбек археологиясининг отаси. Ўзбекистон овози. газетаси 1993й 1-май.
3. Аскарлов А, Муḥammadjonov А. Археологиямиз сардори. Совет Ўзбекистони. газетаси 1988-йил, 11-май 4-бет
4. Аскарлов А. Устозларим. Совет Ўзбекистони. газетаси 1989-йил 16-апрел 3-бет.
5. Аскарлов А. Академик Я.Фулломовнинг хаёти ва фаолияти хақида. Ўзбекистон тарихи. журнали 2008-йил № 2, 19-26 бет.
6. Аскарлов А. Хаёт принципига содиқ устозлар. Обществение науки в Узбекистане. 1993-йил № 7, 34-35 бет.
7. Я.Фулломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Тошкент 2008. 1-8 бет, 79-92 бет.
8. Лунин Б. Яхя Гулямович Гулямов. Т-1979 й
9. Yahja G'ulam. O'tmish izlari (arxeologik tekshirishlar). "Guliston" jurnali, 1937 yil № 4, 6-8 bet;
10. Ya.G'ulomovning Xorazm hududlarida tarixiy yodgorliklarni o'rganish maqsadida olib borgan kuzatuv ishlari kundalik daftaridan, 1936-1939-yillar. (O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi. F 2883, R-1, yigmajild 52, 2-14 bet.
11. Bu yerda faqat Ya.G'ulomov faoliyati bilan bog'liq asarlar nazarda tutilmoqda. Dastlabki dala ishlari natijalari maqolalar tarzida jurnallarda va boshqa davriy nashrlarda chop etib borilgan. Qarang, masalan: Yahja G'ulamov Qizilqum ichida qadimgi madaniyat izlari. Sotsialistik fan va turmush. jurnali, 1939 yil № 7-8, 39-41 bet (O'z Res Milliy Arxivi F 2883, R-1, yigmajild 6); O'sha muallif. Tarixiy ednomalar. Sotsialistik fan va turmush. jurnali, 1939 yil № 12, 23-25 bet (Fundamental kutubxona D-132); O'sha muallif. Qadimgi zamon ishlarini o'rganish. Sotsialistik fan va turmush. jurnali, 1939-yil № 1, 20-22 bet (Fundamental kutubxona D-132)
12. Фуломов Я. «Хоразмнинг суғорилиш тарихи, қадимги замонлардан ҳозиргача» Т-1959-йил; 10-бет;



13. Канимкулов Олимжон Шералиевич Яхья Гулямов - крупный ученый-исследователь истории орошаемой земледельческой культуры // Вестник науки и образования. 2020. №9-3 (87). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yahya-gulyamov-krupnyy-uchenyi-issledovatel-istorii-oroshaemoy-zemledelcheskoy-kultury>

14. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т-1964, “Фан”нашриёти, 20-бет;

15. Sheraliyevich K. O. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 1735-1740.

16. Канимкулов О.Ш. Ўзбекистондаги тарихий ва маданий ёдгорликларни ўрганишда Яхё Гуломовнинг ўрни. "Ўтмишга назар" электрон журнали Тошкент 2021-йил июн 4 (6-сон) 48-53 бб,

17. Гулямов Я.Г Памятники города Хивы. Труды Узбекстанского филиала Академии наук СССР, Выпуск 3, гор Ташкент 1941;

18. Gulyamov's K. O. S. Y. History of irrigation in Khorezm //An Important Source in the Study of the History of the Ancient Culture of Irrigated Agriculture In The Territory of Uzbekistan//Current Research Journal of History. – 2022. – Т. 3. – С. 02.

19. Джураев, Икром. "МИГРАЦИОННИЙ ПРОЦЕС ЦЕНТРАЛЬНО АЗИАТСКИХ СКОТОВОДЧЕСКИХ ПЛЕМЕН НА ЮГ." *ТРАДИЦІЙНІ ТА ІННОВАЦІЙНІ ПІДХОДИ ДО НАУКОВИХ ДОСЛІДЖЕНЬ* (2021): 225.